

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
445 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari.....	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellashtirish va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	
O'zbekistonda raqamli bozorlar rivojlanishi: asosiy tendensiyalar va raqobat holati	424
Saparov Islom O'lmasovich	
Rivojlangan mamlakatlar soliq mexanizmini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini barqaror rivojlantirish	430
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
RAQAMLI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA QO'LLANALADIGAN IQTISODIY MODEL.....	437
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	



RAQAMLI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA QO'LLANALADIGAN IQTISODIY MODEL



Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotimiz davomida o'rganilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Ochiq budget" axborot portali orqali joriy yilda o'tkazilayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari va g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy va tahliliy ma'lumotlar hamda tashabbusli budjetlashtirish tizimida galdagi yangi amalga oshirilishi kutilayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashabbusli budget, Ochiq budget, axborot portali, davlat budjeti, jamoatchilik fikri.

Abstract: This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Keywords: initiative budget, Open budget, Citizens' budget, information portal, state budget, Citizens' opinion.

Аннотация: В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, сделанной в рамках проекта «Открытый бюджет».

Ключевые слова: инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va uzluksiz daromad manbalarini shakllantirish, shuningdek, ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularga bo'lgan talab ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi kunda har bir davlat uchun



dolzarb masala hisoblanadi. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rnini axborot texnologiyalari yordamida tashkil etiladi.

Ayni vaqtda "Tashabbusli budjet" loyihasi to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, takliflarni kiritish va g'olibni tanlashdan tortib, loyihani to'liq moliyalashtirishgacha bo'lgan barcha bosqichlar dasturiy ta'minot orqali amalga oshiriladi. Bu inson omilining ta'sirini kamaytiradi va budjet mablag'larini maqsadli hamda samarali sarflashni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli tashabbusli budjetlashtirish so'nggi yillarda jamoaviy qaror qabul qilish, moliyaviy ochiqlik va fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ushbu tizimning nazariy asoslari, avvalo, participatory budgeting tamoyillariga borib taqaladi. Ushbu yo'nalishning yetakchi tadqiqotchilaridan biri bo'lgan Gianpaolo Baiocchi participatory budgetingning ijtimoiy tenglikni kuchaytirishi, qarorlar sifatini yaxshilashi va mahalliy boshqaruvda shaffoflikni oshirishi haqida chuqur tahlillar bergan. Shuningdek, Brian Wampler mazkur tizimning institutsional dizayni, fuqarolar ishtiroki intensivligi va raqamlashtirish jarayoni orqali resurslar taqsimotining samaradorligi oshirishini ta'kidlagan.

Raqamli mexanizmlarning budjet jarayonlariga integratsiyasi bo'yicha Michael J. Jensen va William Mecklingning iqtisodiy agentlar xatti-harakatlari hamda monitoring xarajatlari haqidagi nazariyalari ahamiyatlidir. Ularning agency theory doirasidagi izlanishlari raqamli budjetlashtirish platformalarining tranzaksion xarajatlarni kamaytirishi va axborot assimetriasini qisqartirishi mumkinligini ko'rsatadi. Aqlli boshqaruv tamoyillari bo'yicha James Beniger tomonidan ilgari surilgan "avtomatlashtirilgan nazorat sikli" konsepsiyasi ham raqamli budjet jarayonlarining o'z vaqtida monitoringi va qarorlarni tezkor qabul qilish imkoniyatlarini izohlashda muhim manba hisoblanadi.

Jahon tajribasida raqamli participatory budgeting bo'yicha Yves Sintomer olib borgan keng qamrovli tadqiqotlar asosiy o'rin tutadi. U raqamli platformalar orqali fuqarolarning taklif berish, ovoz berish va loyihalarni monitoring qilish jarayonlari demokratik ishtirokni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishini ta'kidlagan. Shuningdek, Stephen Goldsmith raqamli davlat boshqaruvi modellarida ochiq ma'lumotlar tizimi va fuqarolar platformalari davlat-moliya jarayonlarining samaradorligini sezilarli oshirishi haqida ilmiy asoslangan xulosalar bergan.

Raqamli budjet tizimlarining iqtisodiy samaralari bo'yicha Christian Welzel fuqarolarning texnologiyalar orqali kuchaytirilgan ishtiroki jamiyatning ijtimoiy kapitalini oshirishi va mahalliy boshqaruvda ishonchni mustahkamlashi haqida empirik dalillar taqdim etgan. Manuel Castellsning tarmoq jamiyati nazariyasi esa raqamli ekotizimlarning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yangicha shakllantirishi va budjet jarayonlarining texnologik integratsiyasi orqali boshqaruvni qayta modellashtirish imkoniyatlarini tushuntiradi.

Shuningdek, OECD tomonidan chop etilgan ochiq budjetlashtirish va digital governance bo'yicha yillik hisobotlarda raqamli platformalarning foydalanuvchi tajribasi, texnik barqarorlik, ma'lumotlar xavfsizligi va natijadorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilingan bo'lib, ularning raqamli tashabbusli budjetlashtirish modellarini takomillashtirishda amaliy ahamiyati katta. Ushbu xalqaro izlanishlar raqamli tashabbusli budjetlashtirish iqtisodiy modeli tranzaksion xarajatlarning kamayishi, fuqarolar ishtirokining oshishi, budjet samaradorligi va shaffofligining kuchayishi kabi natijalarni ta'minlashini ilmiy asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar O'zbekistonning ochiq budjet portalini, mahalliy hokimiyat hisobotlari va OECD hamda Jahon banki raqamli boshqaruv ma'lumotlaridan olinadi. Olingan ma'lumotlar tizimli tahlil, taqqoslash, statistik umumlashtirish va kontent tahlili usullari orqali qayta ishlanib, raqamli modelning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga yo'naltiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir jarayonni raqamlashtirish fuqarolarning barcha g'oya va takliflarining obyektiv hamda shaffof tarzda qayta ishlanishini anglatadi. Eng yangi texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlarni tezlashtiradi va soddalashtiradi, balki har bir ovoz hisobga olinishi hamda eng yaxshi tashabbuslar muhim yutuqlarga erishishini ta'minlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. “Tashabbusli budjet” loyihasi qaysi dasturlar bilan bog’langan¹

Raqamli iqtisodiyot tarkibiga elektron hukumat, elektron kommersiya, elektron biznes, raqamli iqtisodiy munosabatlar, raqamli arxivlar, raqamli banklar, virtual korxonalar, kriptovalyutalar – elektron pullar, ijtimoiy tarmoqda marketing xizmatlaridan foydalanish, blokcheyn texnologiyasini joriy etish, korxonalarning raqamli “cho’ntak”lari, raqamli dividendlar va boshqa yo’nalishlar kiradi.

“Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, hozirgi kunda hayotimizni internet va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Butun dunyo raqamlashtirilgan olamga kirib bormoqda. Bu jarayon barcha sohalarida, shu jumladan davlat boshqaruvi tizimida ham keng ko’lamda qo’llanmoqda. Ko’plab davlatlarda raqamlashtirish bo’yicha qonunlar, farmonlar, qarorlar, konsepsiyalar va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan holda ishlar olib borilmoqda.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o’sishining sur’atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o’zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko’rmoqda. Xususan, Amerika Qo’shma Shtatlari yiliga 400 mlrd. AQSH dollaridan ko’proq raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko’prog’i bevosita internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog’liq sohalariga to’g’ri keladi.

2025-yilgacha AQSH sanoatni raqamlashtirishdan qo’shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistika (3,9 trln. dollar) yo’nalishlarida yuqori bo’lishi ta’kidlanmoqda.


Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o’rinlari internet texnologiyalari yordamida tashkil etiladi. Shunga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog’liqni saqlash va qishloq xo’jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4699-son qarori qabul qilindi. Hujjatga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida raqamli iqtisodiyot bilan shug’ullanuvchi yaxlit tizim yaratildi va “Elektron hukumat”, iqtisodiyot tarmoqlari hamda qishloq xo’jaligini raqamlashtirish, IT-parklarni tashkil etish va boshqarish kabi vazifalar to’liq ushbu vazirlik vakolatiga o’tkazildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish doirasida axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish bo’yicha davlat organlari hamda tashkilotlarning loyihalari, texnik hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy ekspertizadan o’tkazadi.

¹ O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi “Ochiq byudjet” axborot portali

Shunday chora-tadbirlarning yangi bosqichini va ustuvor vazifalarni belgilab berishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmoni alohida ahamiyatga ega (2-rasm).



2-rasm. Raqamli rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish eng ustuvor vazifalardan biri etib belgilanishi bejiz emas, chunki ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda va jamiyat hayotida uning muhim rol o'ynashi tobora o'z isbotini topib bormoqda.³

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olim Nikolas Negroponte tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tilishi jarayonida qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligi haqida ilgari surilgan.

Raqamli iqtisodiyot — bu xo'jalik faoliyatini yuritish shakli bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va ularning natijalarini tahlil qilish orqali turli xil ishlab chiqarish jarayonlari, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash va mahsulotlarni yetkazib berishda avvalgi tizimga nisbatan samaraliroq yechimlarni qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot — bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlarni amalga oshirish, internet savdosi, kraudfanding va boshqa turdagi faoliyatlarni raqamli kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'laydigan iqtisodiy tizimdir.⁴

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yurtimizda tashkil etilgan "Tashabbusli budjet" jarayonlari ham raqamli iqtisodiyotga o'tishda tashlangan katta qadamlardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining budjet mablag'larining sarflanishida faol ishtirokini elektron tizim orqali tashkil etilishi iqtisodiy jihatdan raqamli iqtisodiyotning eng yorqin jihatlaridan biri sanaladi.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O'zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;

taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchligini ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish;

mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyalari bo'yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog'i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" ma'ruzalar matni

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2021-y.

4 G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baktria press", 2016-y.



barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish;

avtomagistral va temir yo'llar, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash;

internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;

geografik joylashuvdan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qondirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;

iste'molchilarga televidion signalni uzatish, yer usti televidion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televidion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish;

"bulutli" hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash;

bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;

Elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulash hamda ushbu tarmoqni rivojlantirish.

2020–2022-yillar davomida hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

aholi punktlarini internet tarmog'iga ulash darajasini, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 mIngacha ko'paytirish, 20 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78%dan 95%ga yetkazish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish;

587 ming nafar kishini, shu jumladan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitishni tashkil etish;

iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish;

hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalarini birlashtirish hamda ularning 12 ming nafar xodimini axborot texnologiyalari sohasida o'qitish.

Ko'p yillar davomida fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolar tegishli idoralarga murojaat qilish orqali o'rganilgan va mazkur amaliyot hozirgi kunda ham har bir tashkilotning huquqiy vakolatlaridan kelib chiqib, tegishli masalalar qonun doirasida amalga oshirilmoqda. Hammamizga ma'lumki, ushbu jarayonlarda fuqarolarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda ularning murojaatlarini tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda to'liq qondirish har doim ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi.

"Tashabbusli budjet" jarayonlarini birma-bir tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu mexanizm bir qancha elektronlashgan tizimlardan tashkil topganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, har bir fuqaro onlayn tarzda o'z shaxsiy mobil qurilmasi yoki kompyuter hamda planshet yordamida "Ochiq budjet" axborot portalini orqali:

- ro'yxatdan o'tishi;
- taklif qoldirishi;
- tegishli taklifga ovoz berishi;
- barcha ochiq ma'lumotlarni kuzatib borishi va tahlil qilish imkoniyatlariga ega.

Ushbu jarayonlarni raqamlashtirish zamon talabi bo'lishi bilan bir qatorda jamoatchilikning keng qismini qamrab olishda ham ishonchli mexanizm hisoblanadi. Jamoatchilikning keng qatlamini mazkur tizim bo'yicha xabardorligini oshirish va o'z tushunchalarini kengaytirish bo'yicha ham elektronlashgan mexanizm o'z foydasini bermoqda.

"Tashabbusli budjet" jarayonlarini keng jamoatchilikka sifatli taqdim etish va har tomonlama texnik barqaror tizimni ta'minlash, tabiiyki, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, o'tgan yillarda kuzatilgan kamchiliklarning kelgusida takrorlanmasligi hamda jarayon bilan bog'liq muammolarni tizimli ravishda hal etishda xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishni talab etmoqda.

Yuqorida keltirilgan yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar kuzatilganini ham e'tirof etish lozim. Jumladan, ovoz berish bosqichi davomida portaldan foydalanuvchilar soni keskin ortib, tashrif buyuruvchilar soni o'rtacha kunlik 600–700 ming nafarni tashkil etganligi sababli portal faoliyatida texnik nosozliklar kuzatildi.

Shu munosabat bilan, kelgusida "Tashabbusli budjet" jarayonlarini o'tkazishda bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda "Ochiq budjet" axborot portalini tubdan takomillashtirish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, g'olib deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish va o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha "Tashabbusli budjet" jarayonini muvofiqlashtirishga doir Oliy Majlis Senati qarori bilan tasdiqlangan amaldagi

Namunaviy nizomga tegishli normalar kiritildi. Unga ko'ra, Ochiq budget axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni sifatli va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida nizom bir qator bandlar bilan to'ldirildi.

Jumladan:

- loyihalarni amalga oshirish uchun tadbirlarni sohasidan kelib chiqib, tegishliligiga ko'ra mas'ul buyurtmachi tashkilotlarni birlashtirish bo'yicha ro'yxat shakllantirish;
- tashabbusli budget jarayoni doirasida fuqarolar tomonidan kelib tushgan loyihalar Ochiq budget axborot portaliga kelib tushgan kundan boshlab 10 kun ichida buyurtmachi korxonalar tomonidan ko'rib chiqilishi va xulosa taqdim etilishi majburiyligi;
- ovoz berish bosqichi yakunlangandan so'ng 7 kun muddatda "g'olib" deb topilgan loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari qarori qabul qilinishi;
- tovar-moddiy boyliklar (xizmatlar)ni xarid qilish, obyektlarni ta'mirlash va qurish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishda xarid tartib-taomillari turi va muddatlarini belgilash;
- loyihalarni amalga oshirish jarayonida jamoatchilik nazoratini o'rnatishni nazarda tutuvchi bandlarni kiritish belgilandi.

Bundan tashqari, "Tashabbusli budget" jarayonini yanada takomillashtirish hamda kuzatilgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish choralari doimiy amalga oshirib borilmoqda.

"Bir kishi – bir ovoz" tamoyili kech joriy etilganligi sababli loyihalarni tanlash jarayonida mobil aloqa operatorlaridan "bir martalik sim-karta" sotib olish orqali ovozlar sonini sun'iy oshirish holatlari kuzatildi.

Taklif etilayotgan loyihalarning samaradorligini baholash mexanizmi mavjud emas. Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan qat'iy nazar, barcha tashabbuslar tanlovda "bir xil" shartlar asosida ishtirok etadi. Bu esa zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarning cheklanishiga va aholi noroziligiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayrim loyihalarga ovoz berish jarayonlari mazkur hududda yashovchi fuqarolarning haqiqiy xohish-istaklari va fikrini doimo aks ettirmaydi. Odatda, umumta'lim maktablarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga oid loyihalar ko'p sonli o'quvchilar (jumladan boshqa hududlarda yashovchi) va ularning yaqin qarindoshlari ovozlari hisobidan g'olib deb topiladi.

Tashabbuskor fuqarolar tomonidan ovoz berish jarayonlarida shahar markazlari, bozor va ko'ngilochar maskanlarda takliflarga ko'proq ovoz yig'ish maqsadida "ovoz yig'ish yarmarkalari" o'tkazildi. Ya'ni, ma'lum qiymatli takliflar yoki rag'batlantiruvchi vositalar orqali insonlarni qiziqtirish yo'li bilan ovoz yig'ish holatlari kuzatildi. Bu holatni har kim turlicha baholadi: ayrimlar "Tashabbusli budget" jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilgani deb hisoblasa, boshqalar fuqarolarning ortiqcha sarsongarchiligiga sabab bo'layotganini ta'kidlaganlar bo'ldi.

Yuqorida qayd etilgan tizimli muammolarning asl ildizi ovoz berish jarayonlarini to'liq "bir fuqaro – bir ovoz" tamoyili asosida texnik jihatdan ta'minlash zaruratiga borib taqaladi. Bugungi kunda aynan ushbu yo'nalish bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va 2024-yil "Tashabbusli budget" jarayonlarining 1-mavsumini to'liq ishga tushirish rejalashtirilgan.

"Tashabbusli budget" loyihasi qisqa vaqt ichida keng jamoatchilikning birlashuviga, moliyaviy savodxonlikning oshishiga va eng muhim — davlat va jamiyat o'rtasidagi raqamli ko'prik vazifasini bajaruvchi ijtimoiy loyihaga aylanib ulgurdi.

"Tashabbusli budget" jarayonlarini raqamlashtirish — bu barcha bosqichlarni (takliflarni yig'ish, saralash, ovoz berish, monitoring) onlayn platformalar, mobil ilovalar, GIS-texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tahlil vositalari orqali amalga oshirishni anglatadi. Mazkur jarayonlarni raqamlashtirish faqat texnik vosita emas, balki demokratik innovatsiya sifatida qaraladi. Ilmiy yondashuvlarda fuqarolarning ishonchini oshirish, inklyuzivlikni ta'minlash va shaffoflikni kuchaytirish markaziy o'rin egallaydi.

Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli texnologiyalar (internet, sun'iy intellekt, blokcheyn, IoT, bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar) asosida amalga oshadigan iqtisodiy faoliyatdir. Mazkur jarayon faqat iqtisodiy operatsiyalarni emas, balki fuqarolar bilan davlat munosabatlarini ham raqamlashtirishni o'z ichiga oladi.

21-asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlar tabiatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat iqtisodiy faollikni, balki fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashda ham muhim omilga aylandi. Shu munosabat bilan, fuqarolar bilan ishlashda raqamli vositalardan foydalanish demokratik jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va uning fuqarolar bilan ishlashdagi ahamiyati shundaki, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Fuqarolar bilan ishlashda u quyidagi vazifalarni bajaradi: elektron davlat xizmatlari (murojaat yuborish, hujjat taqdim etish, to'lovlarni amalga oshirish); ishtirokchilikni kuchaytirish (raqamli so'rovnomalar, onlayn ovoz berishlar, partisipator budgetlashtirish);



axborot aniqligi va shaffoflik (davlat faoliyati yuzasidan ochiq ma'lumotlar taqdim etish); dastlabki tahlil va avtomatlashtirish (sun'iy intellekt asosida murojaatlarni saralash va tahlil qilish) (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda ham fuqarolar bilan ishlashda raqamli iqtisodiyot elementlari izchil tatbiq etilayotgani bo'yicha⁵

Platforma	Vazifasi
My.gov.uz	Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish
Openbudget.uz	Tashabbusli budjetlashtirish, fuqarolarning takliflari va ovoz berishlari
Meningfikrim.uz	Qonun loyihalarini muhokama qilish va takliflarni kiritish
E-anticor.uz	Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash
Telegram botlar	Masalan, "Soliqchi", "Adliya" botlari orqali ma'lumot berish va xizmat ko'rsatish

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan "Tashabbusli budjet" mexanizmining to'liq raqamlashtirilishi davlat boshqaruvi ochiqligi, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va fuqarolar g'oyalarini hayotga tatbiq etish borasida muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlar budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlab, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish bilan birga fuqarolar faoliyatini qulay, tezkor va ishonchli raqamli platformalar orqali qo'llab-quvvatlamogda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, internet texnologiyalarining keng joriy qilinishi va davlat xizmatlarining elektron shaklga o'tayotgani jamiyatning barcha qatlamlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Shu bilan birga, yuqori yuklama davrlarida texnik nosozliklar kuzatilishi, ovoz berish jarayonlarida sun'iy faollik holatlari va takliflarni baholash mexanizmlarining yetarlicha takomillashmaganligi mavjud tizimni muntazam ravishda yangilash va mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda. Raqamli vositalar orqali fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish va "bir fuqaro – bir ovoz" tamoyilini to'liq amalda qo'llashning bosqichma-bosqich joriy etilishi demokratik boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, "Tashabbusli budjet" jarayonlarining elektronlashuvi iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi, jamoatchilik nazoratini kuchaytiruvchi va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi ishonch ko'prigini mustahkamlovchi dolzarb islohotlardan biri sifatida o'zining amaliy ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2021 й.
2. Файбуллаев О., Ўроқов У. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Ўқув қўлланма. – Т.: "Бактрия пресс", 2016 й.
3. G. Baiocchi. Participation, Politics, and Urban Governance. – New York: Palgrave Macmillan, 2003.–248 p.
4. B. Wampler. Participatory Budgeting in Brazil: Contestation, Cooperation, and Accountability. – University Park: Pennsylvania State University Press, 2007.–312 p.
5. M.C. Jensen, W.H. Meckling. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. – Journal of Financial Economics, 1976.–30 p.
6. Y. Sintomer, C. Herzberg, A. Röcke. Participatory Budgeting in Europe: Democracy and Public Governance. – London: Routledge, 2016.–190 p.
7. S. Goldsmith, S. Crawford. The Responsive City: Engaging Communities Through Data-Smart Governance. – San Francisco: Jossey-Bass, 2014.–240 p.
8. C. Welzel. Freedom Rising: Human Empowerment and the Quest for Emancipation. – New York: Cambridge University Press, 2013.–480 p.
9. M. Castells. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 1996.–556 p.
10. J.R. Beniger. The Control Revolution: Technological and Economic Origins of the Information Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1986.–393 p.
11. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги "Иқтисодий таълимотлар тарихи" маърузалар матни.

5 "Ochiq ma'lumotlar" axborot portali

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100